



ISLOMGACHA BO'LGAN DAVRDA MARKAZIY OSIYODA DINIY FALSAFIY QARASHLAR

Azamova Sitora Ayonovna

SHDPI Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

SHDPI Tarix yunalishi 2-kurs talabasi

Xushnazarova Setora

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyoning qadimgi davridagi falsafiy fikrlar rivojlanishiga asos bo'lgan insonlar, qadimgi va o'rta asrlardagi diniy falsafiy qarashlar haqida ma'lumotlar berilgan. Tarixiy manbalarga asoslanib, buyuk allomalarimiz tomonidan o'rganilgan falsafiy adabiyotlar va tadqiqotlar ko'rib chiqilgan.

O'tmishda mintaqamiz, jumladan, hozirgi O'zbekiston hududida turli o'ziga xos diniy qarashlar va unga asoslangan urf-odat va an'analar mavjud bo'lgan. Xususan, tadqiqotchilar O'zbekistondagi ibtidoiy dinlar sifatida fetishizm, totemizm, animizm, shamanizm, magiya va sehrgarlik turlarini sanab o'tadilar. Fetishizm (fr. fetiche — «but», «sanam», «tumor», umuman muqaddas buyum) mohiyatan tabiatdagi jonsiz narsalarga sig'inish hisoblanib, unga ko'ra alohida buyumlarda kishini o'z maqsadiga erishtirish, ma'lum voqea-hodisalarni o'zgartirish qudrati mavjud bo'ladi. Bunday e'tiqod shaklini ibtidoiy davr insonining bilimsizligi bilan emas, balki o'z hayotini muayyan darajada tartibga solish, unga ma'no mazmun bag'ishlash, o'tkinchi olamdagi o'rnini aniqlash, unga bo'lgan munosabatini oydinlashtirishga intilishining hosilasi deb qarash o'rinli bo'ladi. Bu kabi e'tiqod shakllarini, albatta, jahon dinlariga tenglashtirib bo'lmaydi. Chunki ularda mazkur dinlarga xos bo'lgan va hayotning deyarli barcha ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ruhiy jihatlarini qamrab olishdek mukammal tizim yo'q. Fetishizmning unsurlari hozirgi davrda ham xalqlarning urf-odat va an'alarida, turli tumor, ko'zmunchoq va har xil ramzlarga bo'lgan munosabatida ham saqlanib qolganki, bundan o'z davrida u kishilar hayoti, dunyoqarashi va xulqini belgilashda nechog'li muhim ahamiyat kasb etgani haqida xulosa chiqarish mumkin. Totemizm (Shimoliy Amerikada yashagan Ojibva hindu qabilasi tilidan olingan bo'lib, «uning urug'i» ma'nosini anglatadi) mohiyatan «odamning hayvonot yoki o'simlikning muayyan turlariga qarindoshlik aloqasi bor», deb e'tiqod qilishdir. Ushbu e'tiqod shakliga ko'ra, faqat ba'zi diniy marosimlarda ruhoniylar yoxud qabila boshliligi qabul qilinishiga totemni yeyishlari mumkin



bo'lganini e'tiborga olmaganda, totem hisoblangan hayvon yoki o'simlikni ozuqa sifatida iste'mol qilinishi taqiqlangan. Hozirda ham ko'plab xalqlarda totemizmning unsurlari saqlanib qolgan. Hindlarda sigirni muqaddaslashtirish, qirg'izlarda oq bug'uning afsonaviy baxt keltiruvchi hayvon sifatida ulug'lanishi kabi ko'rinishlarda uchraydigan bunday unsurlar bugungi kunda ham kishilar dunyoqarashi, ma'naviyatida sezilarli o'rinni egallab kelmoqda. Animizm (lotincha «anima» — «ruh», «jon» ma'nolarini anglatadi) ruhlarga sig'inish, tabiat kuchlarini ilohiylashtirish, hayvonot, o'simlik va jonsiz jismlarda ruh, ong va tabiiy qudrat borligi haqidagi ta'limotni ilgari suruvchi ilk diniy qarashlar shakllaridan biri hisoblanadi.

Animizmda tabiatning qudratli kuchlarini osmon va yer, Quyosh va Oy, yomg'ir va shamol, momaqaldiroq va chaqmoq kabilar ilohiylashtirilib, ularda ruh mavjud deb bilingan. Ayni paytda, animizm doirasida reliefning ayrim alohida qismlari — tog'lar va daryolar, adir va o'rmonlar kabi odam e'tiborini tortuvchi narsa va jismlarga ham ilohiy munosabatda bo'linib, hatto, ko'p yillik daraxt, kattaroq xarsang tosh, jarliklarga o'xshash narsalar ham jonli, tafakkurli, sezuvchan va harakat qiluvchi, shuningdek, yaxshilik yoki yomonlik keltirishi mumkin deb tushunilgan. Shundan kelib chiqib, har qanday voqea-hodisalarga e'tibor bilan munosabatda bo'lingan, qurbonliklar qilingan, ruhlar haqqiga duo qilib, marosimlar uyushtirilgan. Animizm bugungi kunda ham kishilar ma'naviyati, kundalik xulqi va faoliyatida muhim o'rinni egallab kelmoqda. Jumladan, o'lganlarning hurmatini o'rniga qo'yib, ular haqida faqat yaxshi xotiralarni eslash, o'tganlar ruhi doimo tiriklar bilan birgaligi, yer, suvdan oqilona foydalanmaslikning gunoh hisoblanishi to'g'risida tasavvurlarning ildizlari animistik qarashlarga borib taqalishini ta'kidlash zarur. Shamanizm (tungus tilida «shaman» so'zi — «sehrgar» ma'nosini anglatadi) real natijalar olish uchun ilohiy kuchlarga ta'sir etish maqsadida sehrgarlik afsun, magiyaga asoslangan holda amalga oshiriladigan marosimlar, urf-odatlar majmui sifatida chiqadi. Unda ota-bobolarining ruhlari bilan xayolan bog'lanish asosiy amaliyot hisoblanadi. O'z vaqtida, Markaziy Osiyoda sehrgarlik marosimlarini yakka holda yoki jamoa bo'lib amalga oshirish amaliyoti keng tarqalgan. Afsungarlik ko'zlangan maqsadga qarab biror bir zarar yetkazish niyatida qilinadigan yovuz dushmanga qarshi masalan, qurol-aslahalarni sehrlashda qo'llanilgan harbiy, «issiq» yoki «sovuq» qilish uchun ishlatiladigan sevgi, davolashda ishlatiladigan tibbiy afsungarlik kabi shakllarda namoyon bo'lgan. Sehrgarlikdan yomg'ir chaqirish yoki shunga o'xshash holda ob-havoni o'zgartirish maqsadlarida ham foydalanilgan. Mintaqa xalqlari hayotida hozirda ham shamanizm



unsurlarini uchratish mumkin. Xususan, kishilar orasida yovuz va sevgi afsungarligining kuchiga ishonch hanuz sezilarli ta'sirga egaligini qayd etish lozim. Zardushtiylik Markaziy Osiyoda miloddan avvalgi II—I ming yilliklarda vujudga kelgan. U dunyodagi eng qadimiy dinlardan biri hisoblanib, unga mil.avv. XII-VI asrlarda Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Eron va Kichik Osiyo xalqlari e'tiqod qilganlar. Zardushtiylik boshqa barcha dinlarga nisbatan bevosita va bilvosita eng ko'p ta'sir o'tkazgan dindir, deyish mumkin. Zardushtiylikda har bir kishi ustidan ilohiy hukm amalga oshirilishi, jannat va jahannam, qiyomat-qoyim, unda tananing qayta tirilishi, tana va ruh qayta birlashib mangu yashashi haqidagi ta'limotlar mavjud. Zardushtiylik dini Zardusht nomiga nisbat berilib, shartli ravishda shunday atab kelinadi. Aslida esa, mazkur dinning muqaddas kitobi hisoblangan «Avesto»da u «Mazdayasna» dini deb atalgan. Bu so'zni «Mazdaga sig'inmoq» deb tarjima qilish mumkin. «Mazda» so'zi «donish, donishmand, oqil» kabi ma'nolarda talqin etiladi.[1]

Zardushtiylik talimoti. Eramizdan avvalgi X asrdan eramizning VII asrlarigacha bo'lgan davr mahsuli bo'lgan diniy-falsafiy talimotlardan biri zardushtiylikdir. Bu ta'limotga Zardusht asos solgan bo'lib, Sharq va G'arbda Zaratushtra, Zaroastr nomlari bilan mashhurdir. Manbalarga ko'ra, Zardusht eramizdan avvalgi VI asrning birinchi yarmida yashagan. Lekin uning tarixiy yoki afsonaviy shaxs ekanli haqida aniq bir to'xtamga kelingani yo'q. U o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan. Lekin uning payg'ambarligi ilohiy asosga ega emas. Ya'ni bu haqiqat ilohiy kitoblarda o'z tasdig'ini topmagan. Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bu ta'limot Vatanimiz hududida, hususan, Xorazm zaminida paydo bo'lgan. U o'z davrida xalqni ezgulik va adolat g'oyalariга davat etish, hayotbaxsh an'analarni shakllantirish, dehqonchilik va shahar madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan, uning g'oyalari bilan bog'liq qadriyatlar bugungi kungacha yashab kelmoqda va xalqimiz turmush tarzining o'ziga hos xususiyatlarini belgilashda ulkan qiymat kasb etmoqda. Zardushtiylikning bosh kitobi «Avesto»dir. Unda qadimgi xalqlarning dunyo to'g'risidagi tasavvurlari, o'ziga xos qadriyat va urf-odatlar aks etgan. Unda olamning azaliy qarama-qarshi kuchlari- yahshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat, issiqlik va sovuqlik, hayot va o'lim borasidagi qarashlar o'z ifodasini topgan. «Avesto»da, shuningdek, tabiat falsafasi, tarix, etika, tibbiyotga oid malumotlar ham berilgan. Falsafa tarixida makedoniyalik Aleksandr (eski o'zbek tilida Iskandar deyilgan) istilosi va Grek-Baqtriya davri falsafasi ham xalqimizning taraqqiyot tarixida muhim o'rin tutgan. Manbalarda Aleksandr qo'shini mahalliy xalqlarning



qattiq qarshiligiga uchragani, u «Avesto»ning ko'pgina qismini yondirib yuborgani haqida ma'lumotlar bor. Bugungi kungacha ham ayrim tarixchilar Aleksandr Avestoning tilini bilmagani, uni o'qiy olmagan sababli bu kitobning qadrdimmatini tushunmagan va uni yoqish tug'risida ko'rsatma bergan, degan fikrlarni bayon etadilar. Aslida unday emas. Bu — tarixiy haqiqatni, garchand u kimlar uchundir achchiq va kimlar uchundir ibratli bo'lsa-da, haspo'shlashga urinishdan boshqa narsa emas. Negaki, Aleksandr o'z zamonida fanlarning otasi deb nom olgan falsafani fan darajasiga ko'targan, buyuk donishmand sifatida yetti iqlimda tan olingan Arastudan 20 yil mobaynida muttasil ta'lim olgan edi.[2]

Islom dinining Markaziy Osiyoda tarqalishi bevosita arablarning bu o'lkaga kirib kelishi va ularning hukmronligi davri bilan bog'liq. Arablarning Markaziy Osiyoga yurishlari 643—644-yillarda boshlangan bo'lsa-da, mintaqaning arab xalifaligi tarkibiga kiritilishi Qutayba ibn Muslim al-Bohiliy (704—715) davrida amalga oshirildi. Arablar bosib olgan yerlar «Movarounnahr» («Daryo ortidagi yer») va arablarga bo'ysunmagan hukmdorlar yerlari «Arodi at-turk» («Turklar yerlari») deb ataldi. Mazkur ikki hududda islomlashuv jarayonlari turli xilda kechdi. Abu Muslim (747-755) qo'zg'olonigacha Markaziy Osiyoda islomdan avvalgi davr hukmdorlari (ixshid, buxor-xudot va boshqalar) mahalliy aholini boshqarish va ulardan arablar uchun soliq yig'ishdek vazifalarini bajarish orqali o'z mavqelarini saqlab turdilar. Abu Muslim (747-755) qo'zg'olonigacha Markaziy Osiyoda islomdan avvalgi davr hukmdorlari (ixshid, buxor-xudot va boshqalar) mahalliy aholini boshqarish va ulardan arablar uchun soliq yig'ishdek vazifalarini bajarish orqali o'z mavqelarini saqlab turdilar. Arab va arab bo'lmagan musulmonlarning teng huquqliligi uchun kurashning boshlanishi ham aynan shu davrga to'g'ri keldi. Bu harakatda murjiiylar yetakchi o'rinni egalladilar va o'lkada arab bo'lmagan musulmonlar haq-huquqlarining arablar tomonidan poymol etilishiga qarshi faol harakat (820—840-yillar) olib bordilar. Xususan, Murjiiy al-Horis ibn Surayj qo'zg'oloni (734—746) Movarounnahr aholisi tarafidan qizg'in qo'llab-quvvatlandi. Murjiiylarning islom amallarini bajarmagan kishi imondan ajralmasligi haqidagi qarashlari esa yerli aholining islomni qabul qilishini osonlashtirdi. Shuningdek, bu ta'limot yangi shakllanayotgan islom jamiyatida arab va ajam (arab bo'lmagan) xalqlarining teng huquqliligi milliy-madaniy qadriyatlarining saqlab qolinishini ta'minlashga imkon yaratib berdi. Abu Muslim harakati (749-yil) g'alabasi oqibatida buning amalda ta'minlanishi murjiiylik g'oyalarning siyosiy-ijtimoiy sohadan ilohiyot fani jabhasiga ko'chishiga zamin yaratdi.[3]



Markaziy Osiyo tarixida Islomdan oldingi diniy va falsafiy qarashlar ko'plab qadimiy madaniyatlar, falsafiy ta'limotlar va diniy tizimlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Bu hududda mavjud bo'lgan asosiy diniy va falsafiy qarashlar quyidagilardan iborat: 1. Zardushtlik (Zoroastrizm) Markaziy Osiyoning ko'plab qismlarida, ayniqsa, Sog'd va Xorazmda zardushtlik dini keng tarqalgan edi. Zardushtlik – Erta Fors imperiyasi davrida (miloddan avvalgi VII-VI asrlar) yuzaga kelgan din bo'lib, uning asoschisi Zardusht (Zoroaster)dir. Zardushtlikda yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash, insonning axloqiy tanlovi, dunyoning oxiriga bo'lgan e'tiqodlar va Haqiqat (Asha) tushunchasi muhim o'rin tutgan. Bu ta'limot, keyinchalik Islom, Xristianlik va Iudaizm kabi dinlarga ta'sir ko'rsatgan. 2. Manixeylik Manixeylik, Zardushtlik va Xristianlik elementlarini o'z ichiga olgan diniy falsafiy oqimdir. Bu dinning asoschisi Mani bo'lib, u III asrda Parfiyaning hukumdori Shapur I davrida faoliyat ko'rsatgan. Manixeylik dualistik e'tiqodga asoslanadi, unda yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi doimiy kurash tasvirlanadi. Bu din Markaziy Osiyo, Xitoy, Hindiston va Rim imperiyasida tarqalgan. 3. Buddaviylik Markaziy Osiyo qadimiy tarixida, ayniqsa, Kushon imperiyasi davrida, Buddaviylik keng tarqalgan. Bu din Hindistonda vujudga kelgan bo'lib, insonning azob-uqubatlardan qutilishi, kamolotga erishishi uchun to'rt to'g'ri yo'lni (yoki "to'rt asosiy haqiqat") amalga oshirishga qaratilgan edi. Kushon imperatorligi hududida, ayniqsa, Buddizm san'ati va falsafasi rivojlangan. 4. Shamanizm Markaziy Osiyo va uning atrofi hududlarida, shuningdek, shamanistik e'tiqodlar mavjud edi. Shamanizm, odamlar va ruhlar dunyosi o'rtasidagi aloqani o'rnatish, tabiat bilan uyg'un yashash va ruhiy tajribalarga asoslangan diniy tizimdir. Shamanlar orqali tabiat kuchlari va ruhlar bilan aloqa qilishga intilgan. Bu e'tiqod ko'plab turkiy va mongol xalqlari orasida mavjud bo'lib, keyinchalik Islomning kirishi bilan ko'p jihatdan o'zgarishga uchragan. 5. Gnostitsizm-Gnostitsizm, ayniqsa, Manixeylik va boshqa diniy ta'limotlar bilan bog'liq bo'lib, bilim (gnosis) va haqiqiy tushuncha orqali xalos bo'lishni o'zida aks ettirgan. Markaziy Osiyo shuningdek, qadimgi G'arbiy va Sharqiy falsafiy oqimlar ta'sirida ham bo'lgan. Bu ta'limotlar orqali odamlar dunyoning asl mohiyatini anglashga, koinotning o'zaro bog'liqligini tushunishga intilishgan. 6. Sabbahizm (Yaqin Sharqdagi Yel ishlari) Sabbahizm, hamda boshqa qadimiy diniy falsafiy qarashlar, xuddi Manixeylik kabi dualistik o'zgarishlarga asoslangan bo'lib, islomga qadar ham Markaziy Osiyoda bu dinlar mavjud bo'lib kelgan.[4]

Milodiy VII asrda vujudga kelgan Islom dini tez fursatlarda anchayin katta hududlarga yoyildi hamda ulkan hududlardagi ko'plab aholini yagona din, yagona



mafkura asosida birlashtirishga hamda adolatli jamiyat hamda adolatli turmush tarzi kabi g'oyalarni insonlar ongiga singdirishga asos bo'ldi. Bu borada insonlarni o'ziga tortgan hamda ularni ishontira olgan asosiy omillar sifatida ushbu dinning asl mohiyatidagi soflik, Islom dinining muqaddas kitobi- Qur'oni Karim, Allohning rasuli hisoblangan- Muhammad (s.a.v.) hamda undan keyingi choryorlar, ya'ni 4 xalifa: Abu Bakr, Umar, Usmon, Alini keltirish mumkin. Falsafiy jihatdan ham mukammal tizimga ega bo'lgan ushbu din Alloh tomonidan insonlarga taqdim etilgan eng so'nggi va haq din hisoblanadi. Jahonda qariyb 1,8 milliard kishi islomga e'tiqod qiladi. Islom (arabcha, "bo'ysunish", "itoat etish") - jahondagi keng tarqalgan uch dindan biri[2]. Ushbu dinga e'tiqod qiluvchilar muslim, musulmon deb ataladi. Bu dinning payg'ambari Muhammad (s.a.v.) hisoblanadi. Dinning muqaddas kitobi Qur'oni Karim hisoblanadi. Qur'on- arabcha, "qiroat", "o'qish" degan ma'noni anglatadi. Qur'oni Karim islom dinining muqaddas kitobi hisoblanib, 610-yildan Muhammad (s.a.v.) vafotiga qadar nozil qilingan bo'lib 114 ta suradan iborat[.5]

Ko'rinib turibdiki, islom dini har taraflama mukammal, kamchiliklarsiz din hisoblanadi. Xoh ilmiy jihatdan, xoh falsafiy jihatdan, xoh diniy ta'limot nuqtayi nazaridan olib qaralsa ham islom dinidagi ajoyib tizimni, aniqlikni ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Islom dinining muqaddas kitobi hisoblangan Qur'onni mukammal bilgan inson ko'p tomonlama muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Oddiy misol, Qur'onni bilish, uning mohiyatini anglash orqali inson ruhiy, ma'naviy, aqliy

barkamollikka erishadi. Insonda iroda, sabr-toqat, matonat kabi ijobiy hislatlarning

yanada sayqallanishi kuzatiladi. Insonlarda Allohga, uning taqdiriga ishonch, yomon qilmishlar uchun Alloh oldida shaxsiy javobgarlikni anglab yetish va buning natijasida Allohning hukmidan qo'rquv kabi tuyg'ular kuzatiladi. Natijada insonlar o'z-o'zidan yomon ishlardan, umuman olganda gunoh qilishdan tiyilishadi. Insonlarni yomon yo'ldan qaytargani, yaxshi yo'lga yetaklagani uchun ham islom dini haq din, adolatli din hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Z.Husniddinov "Diniy ekstremizim va terrorizimga qarshi kurashning ma'naviy - ma'rifiy asoslari" Toshkent-2005.
2. A. Mo'minov, X Yo'ldoshxo'jayev, D.Rahimjonov, M.Komilov, A.Abdussatorov "Dinshunoslik" .Toshkent –"Mehnat"-2004
- 3 .J. Jurayev "Dinshunoslika asoslari" Toshkent-2013
4. Z.M.Islomov "Dinshunoslik" Toshkent -2015



5. Tursunboyev Alisher “Markaziy Osiyoning Qadimgi Davrida Falsafiy Fikrlar Rivoji” -2021.
6. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – С. 984-989.
7. Omonov B. N., Ochilova G. A., Azamova S. A. SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN //World of Scientific news in Science. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 15-28.
8. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – С. 94-97.
9. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – С. 94-97.
10. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – Т. 12. – №. 1. – С. 20-24.
11. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – Т. 12. – №. 1. – С. 20-24.
12. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – Т. 12. – №. 1. – С. 20-24.
13. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 743-749.
14. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
15. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – Т. 1. – №. 1.